

BUGUNGI KUNDA MENEJMENTNING JAHONDA TUTGAN O‘RNI

Abdixalilova Marjona Abdixomid qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada menejment haqida tushunchalar, menejmentning maqsad va vazifalari” shu bilan bir qatorda “O‘zbekistonda menejmentni rivojlantirish yo‘llari”, menejmentning bugungi kunda yangi qiyofasi” va buhungi kundagi jahondagi mavqeyi haqida bilib olasiz.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, menjment, menejir, konseptsiyasi, ishlab chiqarish, biznes jarayonlari.

Menejment (inglizcha: management) — boshqarish, tashkil etish) — maxsus boshqarish faoliyati; boshqarish to‘g‘risidagi fan. Menejmentning holati ishlab chiqarish samaradorligiga, texnika va texnologiya darajasi hamda ishchi kuchining sifatiga ta‘sir ko‘rsatadi. Menejment fanining mazmuni boshqaruv tizimi va boshqaruv ob‘yekti orasidagi o‘zaro munosabat bo‘lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san‘ati sirlarini o‘rganishdan iborat. Boshqaruv — tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi bozor munosabatlari sharoitida barcha bo‘g‘inlarda ishlay oladigan yuqori malakali boshqaruvchilarni tayyorlashdan iborat. Menejment ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan aloqadordir. Menejment dastavval iqtisodiy nazariya fani bilan yaqindan bog‘liq. U iqtisodiy qonunlarni bilib olishga va ularga mos ravishda boshqarish jarayonida iqtisodiy usullarni qo‘llashga, har bir xodimga va jamoaga ta‘sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bir qancha iqtisodiy fanlar: makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, mehnat iqtisodiyoti kabilar ham Menejment fani bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekistonda Menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida shakllana boshlagan. Buyuk sarkarda "Temur tuzuklari" asarida davlat, qo‘shin va boshqalarni boshqarish san‘ati to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etib, izohlab bergan. Menejment fanining nazariy asosini bir necha yuz yillar davomida to‘plangan amaliy tajriba natijalari tashkil etadi, ularni nazariy jihatdan asoslab turli xil konsepsiyalar, nazariy g‘oyalar, ish prinsiplari va uslublari ishlab chiqilgan. Ammo alohida fan sohasi sifatida menejment XIX asrga kelib shakllana boshladi. Boshqarish fanining asoschisi — amerikalik muhandis va tadqiqotchi F. Teylor hisoblanadi. Boshqarish tamoyillarini Teylorning zamondoshi fransuz olimi Anri Fayol ishlab chiqdi. Korxonada amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni u olti guruh (texnika, tijorat, moliya, mol-mulk va shaxslarni qo‘riqlash, hisobkitob, ma‘muriy)ga bo‘lib, boshqarishni 6-guruhga



kiritadi. Menejment yoki boshqarishning ob'yekti korxonalar faoliyati, uning sub'yekti esa boshqarish ishini bajaruvchi idoralar va ularning xodimlaridir. Menejment bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning qonun-qoidalarini chuqur biladigan malakali mutaxassislar — yollanma boshqaruvchilar — menejerlar shug'ullanadilar. Ular aholining alohida ijtimoiy qatlamini tashkil qiladi. Menejmentning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), o'rta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, bo'lim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) bo'g'inlari bor. Shunga muvofiq holda menejerlar oliy martabali, o'rta toifadagi va quyi toifadagi menejerlarga bo'linadi. Menejment fanining maqsadi va vazifalari. Menejmentning maqsadlarini belgilashda mutaxassislar ko'pincha o'z davlatlaridagi boshqaruvning maqsadi va vazifalariga qarab muvofiqlashtiradilar (Yevropa davlatlari, Rossiya, O'zbekiston). Menejmentning tadqiqotchilari ham menejmentning maqsadi va vazifalarini belgilashda uning ta'riflarini asos qilib olishadi. Menejmentning fan sifatidagi vazifasi boshqaruv nazariyasini rivojlantirishdan iborat. Ya'ni menejment amaliyotining korxonalar boshqaruvida nazariy holatlar bilan bog'langanligidan foydalanish va bu amaliyot uchun nazariyani rivojlantirishdir. Shuning uchun ham ko'pchilik mutaxassislar menejmentning maqsadi va vazifasini umumlashgan holatda qisqacha belgilashadi.

Menejmentning bosh maqsadi – ishlab chiqarish samara- dorligini oshirish va foydani ko'paytirishdan iborat. Menejmentda ikkita maqsadni ajratadilar:

1. Umumiy (strategik) maqsadlar.
2. Maxsus maqsadlar.

Umumiy (strategik) maqsadlar tashkilotni rivojlantirish konseptsiyasini aniqlaydi. Bu maqsadlar oldindagi istiqbollarga (bashoratlash, korxonalar faoliyatini rejalashtirish) mo'ljallangan bo'ladi. Maxsus maqsadlar umumiy maqsadlarning tarkibida korxonaning asosiy faoliyat turlari, yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqiladi. Menejmentning bosh maqsadi har bir tashkilotning va bu tashkilotdagi har bir ishchining muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan boshqaruvni tashkil qilishdan iborat hisoblanadi. Menejmentning maqsadi uzoq muddatlarda korxonaning bozordagi o'rnini saqlash, mustahkamlash va yashab qolishini, faoliyatini davom ettirishini ta'minlovchi boshqaruvni ishlab chiqish va qo'llash hisoblanadi. Menejmentning asosiy vazifalari haqida ham menejment fanining tadqiqotchilari ko'plab xulosalarni bildirishgan. Bu tadqiqotchilarning natijalari tahlil qilinganda ma'lum bo'ladiki, har bir tadqiqotchi yoki menejment nazariyotchisi menejmentning vazifalarini o'z davlatidagi boshqaruv mezonlari bo'yicha belgilaydilar. Bu xildagi ta'riflarni menejmentning mazmuni va mohiyatini aniqroq belgilovchi Menejmentning belgilangan vazifalarini asosan "Menejment" atamasini ta'lim



va ishlab chiqarish tizimiga kiritayotgan MDH davlatlaridagi menejment tadqiqotchilari belgilashadi. Bizda ham shunday.

Ya'ni menejmentning vazifalari moddiy va nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarni tashkillashtirish va boshqarishning barcha savollarini qamrab olishlari lozim. Menejment mukammal rivojlangan va rivojlanayotgan AQSH va Yevropa davlatlarida boshqaruvni kengroq rejalashtirish uchun ularda ham menejmentni tashkil qilishda, uning funksiyalarini belgilashda vazifalar detallashtirilgan. Hozirga kelib, Yevropa menejmenti menejmentning vazifalarini belgilashda bir yo'nalishdagi vazifalarning barchasini bir guruhga birlashtiradi va bir nom bilan atashadi. Masalan, boshqaruvni tashkillashtirish bilan bog'liq barcha vazifalar "Tashkillashtirish" vazifasiga kiritiladi. Menejment fanining maqsadi va vazifalari.

Menejmentning yuqori (firma strategiyasini ishlab chiqish), o'rta (ishlab chiqarish, sotish, narx belgilash, mehnatni tashkil qilish), quyi (sex, bo'lim doirasida ishni tashkil qilish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlari bajarilishini boshqarish) bo'g'inlari bor. 1985-yildan boshlab menejment rivojlanishida yangi davr boshlandi. Tub islohatlar boshqaruvni jamiyatni demokratlashtirish, oshkoralik va pastdan yuqoriga xalq hokimiyatini o'rnatish asosida takomillashtirishning asosiy yo'llarini ifodalab berdi. Jamiyatda demokratik jarayonlar chuqurlashuvi va rivojlanishi bozor munosabatlariga o'tishga asos bo'ldi. Jamiyatdagi tub o'zgarishlar siyosat, iqtisodiyot, menejment uslublari va texnologiyasiga jiddiy o'zgarishlar kiritishni belgilab qo'ydi sohasida katta o'zgarishlarni amalga oshirmoqda.

2018 va undan keyingi yillarga mo'njallangan ustuvor yo'nalishlar ichida ham bu masala asosiy vazifalardan biri qilib ko'rsatilgan. Iqtisodiyot va uning soha, tarmoqlari rivojlanishida qo'yilgan bu kabi masalalarning samarali tarzda yechilishi uchun menejment faoliyatida quyidagilar harakterlidir:

1. Ishlab chiqarishning va umuman biznesning samaradorligini oshirishga muntazam intilish.

2. Tashkilotning bozordagi faoliyati oxirgi natijalariga javob beradigan shaxsga erkin qaror qabul qilishni ta'minlaydigan keng xo'jalik mustaqilligi.

3. Bozor xolati va tashqi muxit o'zgarishlaridan bog'liq ravishda maqsadlar va dasturlarga doimiy tuzatishlar kiritish.

4. Rejalashtirilgan pirovard natijaga erishishga faoliyatni qaratish.

5. Ko'p variantli hisoblar uchun zamonaviy informatsion bazani qo'llash.

6. Joriy rejalashtirishdan perspektiv rejalashtirishga o'tishda rejalashtirish funksiyalarini o'zgartirish.

7. Axborot texnologiyalaridan, kompyuterlardan maksimal ravishda foydalanish.

8. Boshqarishda tashkilotning hamma xodimlarini jalb etish.



9. O'zgarishlarni ko'zda tutish, o'zgaruvchan qarorlar asosida boshqarishni amalga oshirish.

10. Innovatsiyalarga e'tiborni kuchaytirish.

11. Har bir boshqarish qarorlarini chuqur tahlil qilish.

12. Oqilona tavakkal qilish va tavakkalni boshqarish kobiliyati.

13. Menejment rolini tayanch darajasigacha ko'tarish.

14. Mavjud iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini orttirib borish, ularning har bir birligidan samaraliroq foydalanishni tashkil etish.

Menejmentning vazifasi avvaliga xohishni imkoniyat darajasiga keltirib, so'ng esa uni xaqiqatga aylantirishdan iboratdir.

Mamlakatimiz "falaj qilib davolash" usulidan voz kechdi. Bu yerda bozor munosabatlariga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat mulkini xususiy mulk bilan bir vaqtning o'zida kooperatsiya, tadbirkorlik, chet ellik firmalar, banklar bilan hamkorlikka asoslangan holda turli xo'jalik yuritish usullarini qo'llash yo'li bilan amalga oshirish kerak. Menejment oldiga qo'yilgan ko'pchilik vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Hozirda iqtisodiy tashkilotlar vazifalari o'zgartirildi, boshqaruvning bozor munosabatlariga o'tishi amalga oshirilmoqda, boshqaruvning ixtisoslashuv chuqurlashuvi va kooperatsiya bo'yicha aloqalar barqaror bo'lishini ta'minlovchi yangi tashkiliy tizimlari vujudga kelmoqda. Islohatlar iqtisodiyotni boshqarishning barcha bo'g'inlarini – asosiy bo'g'in (korxonadan) to boshqaruvning oliy bo'g'inlarigacha qamrab olgan. Korxonalar to'g'risidagi qonun korxonalar erkinligi miqyosini kengaytirdi, ularning ish natijalari bo'yicha iste'molchilar oldidagi majburiyatlarini amalga oshirdi.


Xulosa

Har bir biznes mukammalikka harakat qiladi bunda esa korxonaning amaliy bosharuvi muhim ro'l egalaydi agar menejer o'z saloheatini to'laqonli namoyon eta olsa bu korxonaning ishlab chiqarish hajmini 2-3 barvar oshiraoladi. Mukammal menejmentning xos belgilari: faoliyatga, izlanishgatarafdorlik; oddiy tuzilma va kamsonli xodimlar; iste'molchiga yaqinlik; unumdorlikni ta'minlashda insonning hal qiluvchi o'rni; tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi mustaqil idora qilish huquqi; asosiy faoliyat turiga birlamchi e'tibor; hammadan ko'rayaxshiroq tanish bo'lgan sohaga kirishish; erkinlik va kuchli nazoratni birgalikda qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akramovich N.A. The priority of using innovative technologies in the agricultural education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational





Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185–191.

2. Хакимов О.М., Курбанов З.Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике // Science and Education. – 2021. –

Т., 2. – №. 5. – С. 176–181.

3. Мухтаров Б.А., Ортиков Ё.Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане // Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375–378.

4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs for the Quality of Logistics Activities // International journal of business diplomacy and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39–43.

5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549–551.

6. Nodira T. Innovative management in the development of the higher education system // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346–351.

